

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
R.G. Jumayev
2022 yil « 31 »

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

«Turizm va mehmonxona xo'jaligi» KAFEDRASI

«GID-EKSKURSIYA XIZMATINI TASHKIL ETISH» FANIDAN
Mustaqil ishlarni tashkil etish va baholash bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

Buxoro-2022

Mazkur uslubiy ko'rsatma nashri uchun BuxDU o'quv-metodik kengashi ruxsat bergan (2022-yil 25 noyabrda) 1-son yig'ilish bayonomasidan ko'chirma).

Tuzuvchi:

N.J.Xalimova

- BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi"
kafedrasi o'qituvchisi.

TAQRIZCHILAR:

1. **Hamroyev H.R.** - BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi professori, i.f.n.

2. **Tadjiyeva S.U.** - BuxDU, "Marketing va menagement" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

1. Kirish

«Gid-ekskursiya xizmatini tashkil etish» fanida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavriat bosqichi barcha yo'nalishtlar 2-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishni tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarining mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorat asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

2. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Gid-ekskursiya xizmatini tashkil etish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda bilim, dunyogorash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Ekskursiya xizmatini tashkil etish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

Talabaning mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyattir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi professor-o'qituvchilarning bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishni tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tarqqa universitetda raqobatchilik kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

«Gid-ekskursiya xizmatini tashkil etish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rib;
- talabalarining ilmiy jamiyatlari va to'garaklarda ishtirok etish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalarni) bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar yotoqxonasidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'yundirilganiki, butun o'quv jarayoni to'laigicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda turizm sohasiga doir dunyogarasini shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularining mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishehi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashadilar. tayanch iboralarining mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan man o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining aqralmas tarkibiy qismi bo'lgan ekskursiya xizmatlarini tashkil etish va boshqarish fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar qo'rinishida bo'lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birmunchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba taqqidiot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h.k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalamni himoya qilishga, yozlashga tayyorlanishi kerak. ekskursiya xizmatini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega. «Gid-ekskursiya xizmatini tashkil etish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida talabalarining akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakl va turlardan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va turlari

1-jadval

Nö	Mustaqil ishlarining shakllari	Mustaqil ishlarining turlari
1.	Reproduktiv shakldagi mustaqil ishlar	- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash va konspekt qilish; - O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident asarlari va

		ma'ruzalarni, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasini qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarini mustaqil o'rganish va konspektlashirish; - ma'ruzalarni video hamda audio orqali ko'rish, eshitish va konspekt qilish; - multimedia vositalari orqali slaydlar, video materiallarni ko'rish, eshitish va o'zlashtirish; - o'quv materiallarini qaytarish, yod olish va boshqalar.
2.	Anglash-izlanish (qidirish) shaklidagi mustaqil ishlar	- mustaqil ravishda axborotlar, ko'rganimali vositalarni tayyorlash, ma'ruzalarni va boshqa materiallarni o'rganish; - hisob-kitob va analitik ishlarini bajarish, testlar yechish; - seminar, amaliy va boshqa mashg'ulotlarda ma'ruzalarni bilan chiqishlar qilish; - uy ishlari, nazorat ishlari, taqdimotlar, referatlar, key-sadilar va boshqalarni bajarish.
3.	Ijodiy ish shaklidagi mustaqil ishlar	-esse, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari tayyorlash va himoya qilish; - ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish va ilmiy hisobotlar tayyorlashda qatnashish; - talabalarining ilmiy to'garaklarida ishtirok etish; - ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar tayyorlash hamda chop ettirish.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarining referat ishlariga rahbarlik qilish ganchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezonini qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarining referat yozishi ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rganimali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rganimali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rganimali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir nechta talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga tesiga qo'yiladigan talabalar va uni tuzish qonun-qoidalar, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarni qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalarni tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabanning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

«Gid-ekskursiya xizmatini tashkil etish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ish shakllari va mazmuni, ularni bajarish shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

Talabalar mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Ajratilgan soatlar
1	Ishlab chiqarish obyektlarida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	1-hafta	1soat
2	Muzejlarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	1-hafta	1soat
3	San'at galereyasida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	2-hafta	1soat
4	Foto galereyada ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	2-hafta	1soat
5	Ziyoratgohlarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	3-hafta	1soat
6	Arxeologik obyektlarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	3-hafta	1soat
7	Jayron ekomarkazida ekskursiya xizmatini tashkil qilish (Buxorodagi maqbaralarga ekskursiya xizmatini tashkil etish)	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	4-hafta	2soat
8	"Buxoroning 12 darvozasi" yo'nalishi bo'yicha ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	4-hafta	1soat
9	Buxoro g'illalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	5-hafta	1soat
10	"Buxoro madrasalari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	5-hafta	1soat
11	"Buxoro hammomlari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	6-hafta	1soat
12	"Buxoro hovuzlari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	6-hafta	1soat
13	"Buxoro karvonsaroylari va savdo gumhazari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	7-hafta	1soat
14	Fayzullo Xo'jayev uy muzeyida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	7-hafta	1soat
15	Chor-Bakr me'moriy majmuisiga ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	8-hafta	1soat

Talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferensiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kashfiy yo'naldirganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashtirgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalari o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadiga muvofiqdir. «Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish va boshqarish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadiga muvofiqdir:

- 1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlari mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalarini o'tkazish.
- 2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyalarini o'tkazish.
- 3-bosqich – fakul'tetlararo konferensiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumiy konferensiyada taqdim etish.

Bu guruhlar uchun yagona bo'lgan konferensiya mavzusini tasdiqlab, talabalar mustaqil ilmiy-nazariy konferensiyasiga taqdim etish va o'tkazish.

3. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadiga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.
2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.
3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaralishi:
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadiga;
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaralishi;
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadiga;
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaralishi;
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadiga;
 - talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaralishi;

4. Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va jiddiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki e'g'yan asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

5. Talabalar mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish shakllari

		tayyorlash			
16	Xristian diniga oid obyektlarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	8-hafta	1soat	
17	Yahudiy diniga oid obyektlarda ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	9-hafta	2soat	
18	"Buxoro xonaqolari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	9-hafta	1soat	
19	"Temuriylar davrida Buxoro" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	10-hafta	2soat	
20	"Somoniylar davrida Buxoro" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	10-hafta	2soat	
21	"Buxoro avliyolari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	11-hafta	1soat	
22	"Buxoro namozgohlari" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	11-hafta	1soat	
23	"Buxoro sardobalar" mavzusida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	12-hafta	1soat	
24	Aishona qishlog'i va Abu Ali ibn Sino muzeyida ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	12-hafta	2soat	
25	Poyi kalon ansambliga ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	13-hafta	1soat	
26	Ark qo'rg'oniga ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	13-hafta	1soat	
27	Buxorodagi maqbaralarga ekskursiya xizmatini tashkil qilish	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	14-hafta	1soat	
	Jami:		14 hafta	32soat	

6. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha mashlahatarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha mashlahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llarni berish va ularning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha mashlahatlar darsi fanning kalendar - tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Mashlahat darsi tegishli fanning professor - o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fanning professor - o'qituvchisi mashlahat davrida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llarni beradi;
- topshiriqlarni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlar, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha mashlahatlar o'quv jarayonining tashkil etilishiga qarab talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladigan dars jadvaliga kiritiladi.

6. Talabalar mustaqil ishlarni nazorat qilish va baholash tartibi

Mustaqil ishlarning bajarilishi "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan ustubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Talabalar mustaqil ishlarni baholash fan bo'yicha ishlab chiqilgan quyidagi reyting baholash tizimi orqali ifodalanaadi:

a) agar mustaqil ish yozma tarzda o'tkazilsa - baholash tartibi

Baho	Baholash mezonlari
A'lo	Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritilgan bo'lsa, misollar bilan fikrini to'ldirsa, mustaqil mushohada kiritisa, atama va formulalardan to'g'ri foydalangan bo'lsa
Yaxshi	Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritilgan bo'lsa, misollar bilan fikrini to'ldirsa, mustaqil mushohada kiritisa, lekin atama va formulalardan to'g'ri foydalanishda sodda xatoliklarga yo'l qo'ysa
Qoniqarli	Savollarga to'g'ri va to'liq javob yozilgan bo'lsa, savollarning asl mohiyati yoritishga intilgan bo'lsa, misollar bilan fikrini to'ldirsa, mustaqil mushohadasi bo'lmasa, atama va formulalardan foydalanishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'ysa
Qoniqarsiz	Savollarga noto'g'ri javob yozilgan bo'lsa, ularning mohiyatini yotirmasdan qolgan bo'lsa, misollar bilan dalillanmasa

b) agar mustaqil ish taqdimot tayyorlash, SWOT-tahlil o'tkazish, ma'lumot to'plash va tahlil qilish tarzida o'tkazilsa - baholash tartibi

Baho	Baholash mezonlari
A'lo	Talab darajasida rasmiylashtirilgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan
Yaxshi	Fikr misollar bilan dalillanish etarli emas Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan Mavzuga mos reja tuzilgan Rejaga ro'ya qilib man yozilgan Ta'lim yangiliklarini o'z ichiga olgan Fikr misollar bilan dalillanish etarli olgan
Qoniqarsiz	Qo'yilgan masalning ayrim qirralari yoritilgan bo'lsa, hajm jihatdan juda kam bo'lsa, lekin muammoini qisman yoritib bitilgan bo'lsa, reja mavzuga unchalik mos bo'lmasa, ayrim xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, mavzusidan keskin chetga

chiqishlar bo'lsa va ko'rilayotgan masalaga bog'ishlanmagan bo'lsa, u talabga javob bermaydi

7. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Mahmood A. Khan "Tourism in Central Asia: cultural potential and challenges" Canada 2017 y.
2. Sampad Kumar Swain. "Travel Agency and Tour Operations Management". Pondicherry University, India, 2018.
3. Doljenko G. "Ekskursionnoe delo". Uch pos. M. 2019. 304 s.
4. Yemelyanov B.V. "Ekskursovedenie" Uch pos. M. 2017. 117 s.
5. Ibadullayev N.E. «O'zbekistonning turistik resurslari» Ma'ruzalar kursi. Samarqand 2019. 128 b.
6. Tuxliyev I.S., Amriddinova R.S. "Organizatsiya ekskursionmogo obslujivaniya" Ucheb. pos. SamISI. Samarqand 2018. 162 s.
7. Tuxliyev I.S., R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova "Turizm". Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2018 y.-439 b
8. Hayitboyev R. va boshq. «Turizm marshrutlarini ishlab chiqish». O'quv qo'llanma. SamISI. 2020 176b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2017 yil 2 dekabr. PF-4861 - son.
2. «O'zbekiston Respublikasi turizmi rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 2 dekabr. PQ-2666-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 7 fevral 2017 g., № UP-4947.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni-03.02.2018 y., № PF-5326
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori-06.02.2018 y., № PQ-3509
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasi Davlat mulki qonitasining turizmi rivojlantirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashirish chora-tadbirlari to'g'risida" -06.02.2018 y., PQ-3510
7. Amriddinova R.S. «Gid-ekskursiya ishini tashkil etish» (amaliy darslarni o'tish bo'yicha uslubiy ko'rsatma) Samarqand 2019. 57 b.
8. Amriddinova R.S. «Gid-ekskursiya ishini tashkil etish» (amaliy darslarni o'tish bo'yicha uslubiy ko'rsatma) Samarqand 2019. 57 b.
9. Amriddinova R.S. «Gid-ekskursiya ishini tashkil etish» (Ma'ruza matni) Samarqand 2018. 88 b.
10. Btjakov M.B. «Vvedenie v turizm». Uchebnik. SPb. Izd. dom «Gerdan». 2017. 512 s.
11. Tuxliyev I., Ibadullayev N. "Turizm operatorlik xizmatini tashkillahtirishning asoslari". O'quv qo'llanma. SamISI. Samarqand 2017. 256 b.
12. Hayitboyev R., Amriddinova R.S. «Turizmining maxsus turlari». Samarqand 2018. 44 b.
13. Ianeva, M. (2014). Tour Guide Service.
14. Von Rohrscheidt, A. M. (2014). Modern methods of guiding city tours: Analysis of guide's competences and types of services. *Turysyaka Kultura*, 1, 59-70.
15. Chowdhary, N. (2014). *Handbook for Tour Guides*. Indian Institute of Tourism and Travel

Management

Internet saytlari

1. www.lex.uz.
2. www.ziyoum.net/uz.
3. <http://www.tourism.uz/>
4. <http://www.tour.uz/>
5. <http://www.stat.uz>
6. <https://www.global-guide-services.com/>